

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFAT MEZONLARI

*Jabborova Onaxon Mannapovna,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasini dotsenti,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*To‘rayeva Gulhayo Temirqul qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.02.1.032>*

Annotatsiya: mamlakatimizda boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha strategik vazifalar belgilangan. Bunda asosiy e‘tibor boshlang‘ich ta‘limda sifat ko‘rsatkichlariga erishish va shu asosda boshlang‘ich ta‘limning samaradorligini tarkib toptirishga qaratilgan. Mazkur masalalar boshlang‘ich ta‘limning sifat mezonlarini nazariy va metodik jihatdan ishlab chiqishni taqozo etadi. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limning sifat mezonlari asoslari, uning ko‘rsatkichlari (indikatorlari) va amaliy samaradorligi masalalari tahlil qilinib, metodik tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich, ta‘lim, sifat, mezon, ko‘rsatkich, yondashuv, metodika, asos, tahlil, o‘rganish, belgilash, maqsad, vazifa, ko‘nikma, malaka.

KIRISH. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida “Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim tizimini tashkil qilish” vazifasi qo‘yilgan[1;4]. Shu jihatdan aholi talablari – bu boshlang‘ich ta‘limning o‘qitish metodikasini rivojlantirish vositasida o‘quvchilarning bilim va o‘zlashtirishini kuchaytirish, xalqaro standartlarga moslik esa o‘quvchilarning o‘zlashtirishida amaliyot va nazariya uyg‘unligi hamda ularning o‘z bilimlaridan foydalana olish ko‘nikmalarini ifodalaydi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta‘limning sifat talablari aholi talablariga va xalqaro standartlarga mos darajada tashkil etish ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Bunda asosiy e‘tibor maktab sharoiti hamda o‘quvchilarning imkoniyatlarini uyg‘unlashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur maqolada ana shunday yondashuvlardan kelib chiqib, boshlang‘ich ta‘limning sifat mezonlari tahliliga e‘tiboringizni tortamiz.

METODLAR. Maqolada me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili, pedagogik va psixologik yondashuvlar tarkibi, sintez va analiz, qiyosiy-tipologik tahlil, xulosalash va umumlashtirish, analitik yondashuv, ma‘lumotlarning qiyosiy tahlili, yangi yondashuvlar metodikasi, pedagog olimlarning tavsiyalaridan foydalanish kabi metodlarga asoslanildi. Bunda muallifning individual yondashuv metodi va uning xulosalar metodi ustuvor darajada aks etdi. Shu sababli maqolaning metodlarini belgilashda asosiy e‘tibor qo‘yilgan muammoning yechimini ishlab chiqishga qaratildi. Buning natijasida tanlangan metodlarning samara berganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

NATIJARLAR: Yangi O‘zbekistonni barpo etishning 2030 yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi ijrosi jarayonida boshlang‘ich ta‘limning sifat ko‘rsatkichlariga erishish muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bu o‘rinda boshlang‘ich ta‘limning sifat mezonlarini nazariy va metodik jihatdan belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sifat mezonlari asoslari. Ta‘lim tizimida sifat mezonlarini belgilash bo‘yicha bir necha yondashuvlar mavjud ekanligini eslatib o‘tish joiz. Bunday yondashuvlarning asosiylarini quyidagilar tashkil qiladi:

- ta‘lim jarayonining qanoatlanarli darajada bo‘lishi;
- ta‘limda qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishish darajasi;
- ta‘limning o‘zlashtirish darajasi;
- o‘zlashtirishdan foydalanish darajasi[2;470].

Pedagog olimlarning mazkur yondashuviga ko‘ra, ta‘lim sifati mezonlarini idrok etish mumkin. Unga ko‘ra, ta‘lim jarayoni barcha yoshdagi ta‘lim oluvchilar uchun qoniqarli darajada bo‘lishi kerak va bunda ta‘lim oluvchilarning yoshi, aqliy, ruhiy va jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda ta‘lim jarayonini amalga oshirish tanlanadi. Shu sababli ta‘lim jarayonini tashkil etishning qoniqarlilik darajasi sifat ko‘rsatkichlarining eng muhimlaridan birini tashkil qiladi.

Ta‘lim sifatining asoslaridan biri o‘qitish jarayonida qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishishdir. Bunda ta‘limning maqsadi ta‘lim oluvchilarda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, uning vazifalari esa

bilim va ko'nikmalar asosida ta'lim oluvchilarni faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi. Shu jihatdan mazkur masalada pedagogik olimlar turli maqsad va vazifalarning birligiga asoslanish lozimligini tavsiya qiladi[3;62].

Ta'lim sifatining eng muhim asoslaridan biri o'zlashtirish jarayonidir. Unga ko'ra, ta'lim oluvchilar o'quv fanlari kesimida bilim va ko'nikmalarni tushunib o'zlashtirishi nazarda tutiladi. Tushunib o'zlashtirish jarayoni ta'lim oluvchilarning bilimdonlik hamda ko'nikmalik tayyorgarligini kuchaytiruvchi amaliy omil hisoblanadi. Shu sababli o'zlashtirish darajasi ta'lim sifatini ko'rsatishning yaqqol omilidir.

Ta'lim sifatining yana bir asoslaridan biri ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishidir. Unga ko'ra, ta'lim oluvchilar o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda qo'llay olishi lozim. Aynan mana shu masala ta'lim sifatining samaradorlik mezonini hisoblanadi. Mazkur masalada pedagog olimlarimiz tomonidan keng ko'lamli tadqiqot ishlari amalga oshirilayotganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limning asosiy sifat mezonlari. Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning asosiy sifat mezonlarini belgilab olish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur masala bo'yicha o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limning sifat mezonlarini belgilashda turli yondashuvlar mavjud. Shu ma'noda bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limning asosiy sifat mezonlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- boshlang'ich ta'limni munosib sharoit va muhit vositasida tashkil qilish;
- boshlang'ich ta'limni yangi metodikalar va texnologiyalar asosida amalga oshirish;
- boshlang'ich ta'limni o'zlashtirishning innovatsion shakllariga tayanish;
- o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalardan foydalanishning layoqatligini ta'minlash.

Boshlang'ich ta'limni munosib sharoit va muhim vositasida tashkil qilish mazkur ta'lim bosqichining asosiy sifat mezonlaridan birini tashkil qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarining zamonaviy darajadagi binolar va jihozlar bilan ta'minlanayotganligi boshlang'ich ta'limni munosib sharoitda tashkil qilish imkonini bermoqda. Ayni paytda, boshlang'ich ta'limning sharoitlarini mazkur ta'lim bosqichi davlat standartlariga mos ravishda kuchaytirib borish ehtiyoji mavjudligini eslatib o'tish joiz. Shuningdek, mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim muhiti ham bugungi kun talablariga javob berishini eslatib o'tish joiz. Bunda boshlang'ich ta'lim muhitining barqarorligi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual tajribaga ega ekanligi va yangi avlod boshlang'ich sinf darsliklarining amaliyotga kiritilib borilayotganligi muhim o'rin tutmoqda. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim muhitini tashqi salbiy ta'sirlardan muhofaza qilish, bu muhitga o'rinsiz aralashishlarni oldini olish va unda boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda sinf rahbarlarining faoliyat ustuvorligini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi "Pedagogi maqomi to'g'risida"gi Qonuniga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi[4;9-10].

Boshlang'ich ta'limning asosiy sifat mezonlaridan biri uni amalga oshirishda yangi metodikalar va texnologiyalarga tayanishdir. Shu jihatdan keyingi besh yil davomida boshlang'ich ta'limda o'ziga xos metodikalardan foydalanish tajribasi tarkib topdi. Bunday metodikalardan individual ta'lim metodikasi, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim metodikasi, mustaqil ta'lim metodikasi kabilardan keng foydalanish amaliyotga joriy etildi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limni tashkil qilishda masofaviy ta'lim texnologiyasi, raqamli ta'lim texnologiyasi, klasterli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ham kutilgan samarani bermoqda. Ayni paytda, boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda qo'llanilayotgan oflayn va onlayn metodikalar hamda texnologiyalarning samaradorlik masalasiga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Agar yangi metodika va texnologiyalar to'g'ri qo'llanilsa, boshlang'ich ta'limning sifat ko'rsatkichlari namoyon bo'ladi. Shu ma'noda bugungi kunda boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan yangi metodikalar va texnologiyalarning asosiylarini belgilash, ulardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o'tkazib keng ommalashtirish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki boshlang'ich ta'limdan manfaatdor har bir mutaxassis o'zi yaxshi anglagan va o'zlashtirgan metodikalar hamda texnologiyalarni qo'llash jarayoni davom etmoqda. Buning natijasida boshlang'ich ta'limda metodikalar va texnologiyalar jihatidan rang-baranglik yuzaga keldi. Amaliy jihatdan bunday rang-baranglik kutilgan samarani beradi, lekin boshlang'ich ta'lim vazifasini amalga oshirishda har xillikni keltirib chiqarishini unutmash lozim.

Boshlang'ich ta'limning asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri o'zlashtirishning talab darajasida bo'lishidir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumidagi o'quv materiallarini o'zlashtirishi, o'zlashtirganlaridan amaliyotda foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi va tushunib o'zlashtirish malakasini egallashi taqozo etiladi[4;38]. Shu ma'noda boshlang'ich

sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash metodikasini takomillashtirish va unda umumiy mezonlarni belgilab qo'yish taqozo etilmoqda. Savol tug'iladi: o'zlashtirish ko'rsatkichining sifat mezonlari sifatida nimalarni belgilash mumkin? Bizning yondashuvimizga ko'ra, mazkur masalada o'quvchilarning tushunish darajasi, fikrlash darajasi va ularning ta'limiy jihatdan keyingi ta'lim turlariga tayyorgarlik darajasi mezonlariga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quv-texnik vositalardan keng foydalanish natijasida o'quvchilarning tushunish darajasi ba'zida kutilgan ko'rsatkichlarni bermayapti, ularning fikrlashida biryozlamalik yoki texnik yondashuv ustuvor bo'lib qolmoqda, bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limning keyingi turlariga ta'limiy tayyorgarligi monitoring qilib borilmayapti. Bularning barchasi boshlang'ich ta'limning o'zlashtirish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Shu sababli boshlang'ich ta'limni o'zlashtirishning noan'anaviy va innovatsion shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish, matn tuzish, matn xatolarini to'g'rilash va matematik topshiriqlarni tezkor va mustaqil fikrlash vositasida yechish ko'nikmasini tarkib toptirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu omillar o'zlashtirish sifat ko'rsatkichlarini aniq belgilash imkoniyatlarini beradi.

Boshlang'ich ta'limning sifat mezonlarini aniqlash mexanizmlari. Boshlang'ich ta'limni amalga oshirish jarayonida sifat mezonlarini aniqlash mexanizmlarini tarkib toptirish va ularga asoslanish kutilgan samarani beradi. Mazkur masalada bizning yondashuvimiz quyidagicha:

o'zlashtirish sifatini aniqlashning yozma ish mexanizmidan foydalanish;

o'zlashtirish sifatini aniqlashning trening mexanizmidan foydalanish;

o'zlashtirish sifatini aniqlashning taqdimot mexanizmidan foydalanish.

Boshlang'ich ta'lim sifati mezonini aniqlashda yozma ish mexanizmi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari insho, bayon va yozma ish topshiriqlarini bajarishi bilan o'zlarining o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini namoyon qiladi. Misol uchun, insho yozish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlaydi, matn tuzadi va o'zlarining ko'nikmalarini namoyon qiladi. Bunda ularning yozuv malakasi, fikrlash ko'nikmasi va o'z fikrini ifodalash darajasiga asosan ularning bilim va ko'nikmalarini aniq baholash imkoniyatiga ega bo'linadi. Shu ma'noda yozma ish mexanizmi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish sifatini aniqlashdagi eng yaxshi va samarali omillardan biridir. Keyingi paytlarda mazkur masalada Test metodikasidan keng foydalanilmoqda, mazkur metodikaning yutuqlarini inkor etmagan holda ta'kidlash lozimki, aynan yozma ish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini va sifatini yaqqol namoyon qiluvchi omildir. Shu sababli an'anaviy mazkur metodikadan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish sifatini aniqlashda trening mexanizmi ham samarali hisoblanishini eslatib o'tish joiz. Unga ko'ra, o'quvchilar 3-4 nafardan iborat bir necha guruhlariga bo'linadi va guruhlariga topshiriqlar beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari berilgan topshiriqni guruh bo'lib bajarishda birgalikda fikrlaydi, o'z fikrini himoya qiladi va topshiriqning jamoa bo'lib bajarilishiga erishiladi. Buning natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish sifati yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli trening mexanizmidan va uning imkoniyatlaridan har bir o'quv fani doirasida muntazam foydalanib borish o'zlashtirish sifatiga erishishning muhim omillaridan biridir. Kuzatishimizga ko'ra, mazkur amaliy mexanizmdan keyingi paytlarda foydalanish susaygan. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilari trening mexanizmlaridan foydalangan holda o'zlashtirish sifatini aniqlashga e'tibor berishi qulay va samarali imkoniyatlarni beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish sifatini aniqlashda taqdimot mexanizmidan foydalanish ham muhim ahamiyatga egadir. Unga ko'ra, o'quvchilar guruhlariga bo'linadi va ularga mavzular bo'yicha taqdimot tayyorlash topshiriladi. Tayyorlangan taqdimotlar muhokama qilinadi va baholanadi. Eslatib o'tish joizki, taqdimotlarni tayyorlashda boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoa bo'lib ishlaydi, darsliklar va qo'shimcha o'quv materiallaridan foydalanadi, kezi kelganda, maslahatlar va tavsiyalardan foydalanadi. Buning natijasida berilgan mavzu bo'yicha o'ziga xos taqdimot materiali yuzaga keladi va bu materiallar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish sifati ko'rsatkichlarini aniq namoyon qiladi. Bundan tashqari, taqdimot mexanizmining ahamiyati shundaki, o'quvchilarni mustaqil izlanishga yo'naltiradi.

E'tibor berilsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish sifati mezonlari o'ziga xos yondashuvlarni taqozo etadi[5;35].

XULOSA VA TAVSIYALAR: Boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishishning eng muhim

omillaridan biri o'quvchilar o'zlashtirishining sifat mezonlariga tayanishdir. Buning uchun ta'lim sifatini aniqlash mezonlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish sifatini aniqlash asoslari va uni aniqlashning mexanizmlariga asosiy e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirish jarayonida kutilgan ko'rsatkichga erishsa, bu boshlang'ich ta'lim sifatiga asos bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlarini aniq mexanizmlar asosida aniqlash taqozo etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish sifat mezonlarini o'rganish va aniqlash metodikasi bilan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qurollantirilishi muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun o'quv fanlarini o'qitish jarayonida, haftalik pedagogik amaliyot davrida, o'quv fanlarining mustaqil ta'lim bosqichida va Ustoz-shogird an'anasi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlashtirish sifat mezonlarini aniqlash metodikasi bo'yicha ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish taqozo etiladi. Bu bilan oliy boshlang'ich ta'lim jarayoni ham amaliyot bilan keng bog'lanish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Adabiyotlar:

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz

Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent, 2009

O‘zbekiston Respublikasi “Pedagogik maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. // www.ziyonet.uz

Jabborova O. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2023

Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021